



**SHAXSNI RIVOJLANTIRISHDA REFLEKSIV PEDAGOGIKA
TAMOYILLARINING NAZARIY ASOSLARI**

Mirzayeva Shahnoza Ubaydullo qizi

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsni rivojlantirishda refleksiv pedagogika tamoyillarining nazariy asoslari tahlil qilinib, unda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar refleksiv yondashuvni qo'llashning ahamiyatini oshirayotganligi ta'kidlangan. Shuningdek, refleksiv innovatsion amaliyot o'qituvchining ijodiy potentsialini rivojlantirish, pedagogik jarayonda yangi muammolarni aniqlash va ularni hal etish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qilishi o'rganilgan. Bundan tashqari, refleksiv yondashuv shaxsni anglash, boshqalarni tushunish va ijodiy qarorlar qabul qilish imkonini berishi, bu esa zamonaviy ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarda mustaqil fikrlash hamda kreativlikni rivojlantirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, ta'lim, tarbiya, insonparvarlik, ma'naviyat, ma'rifat, ehtiyoj, qobiliyat, demokratiya, konsepsiya.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimi, xususan oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" [1]gi Qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari belgilab berilgan: ta'limda kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi, ta'lim olishga teng imkoniyatlarning ta'minlanishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tarbiyaga singdirilishi, shuningdek, ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik va demokratik xususiyati. Refleksiv pedagogika tamoyillari ushbu huquqiy asoslarni amaliyotga tatbiq etishda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq qator muhim yo'nalishlar belgilab berildi:

birinchidan, davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan, insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta'lim-tarbiya usullaridan foydalanish;

ikkinchidan, yoshlarning qonun hujjatlari mazmun-mohiyatidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog'lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



uchinchidan, talaba-yoshlarni turli axborot xurujlari, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishi, ular tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi holatlarining oldini olish, Vatanimiz istiqboli yo'lida birlashtirish maqsadida ta'lim-tarbiyaning ta'sirchan usullari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda ularning qiziqishini e'tiborga olish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

to'rtinchidan, "maktab – ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i" konsepsiyasi doirasida oliy ta'lim muassasalarining umumta'lim maktablari bilan o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirish, huquqiy savodxonligini oshirish, kasbga yo'naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash kabi masalalarda mentorlik modeli asosida hamkorligini rivojlantirish [2].

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar. Refleksiv yondashuv – (lotincha reflexio - ortga qaytish) faqat subyektning o'z-o'zini bilishi va tushunishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg'usi va bilish (kognitiv) tasavvurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi. Refleksiv yondashuv shaxsni rivojlantirishda ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchidan, insonning o'z-o'zini anglash va baholash jarayoni, ikkinchidan, boshqalar uni qanday qabul qilayotganini tushunishga intilishidir. Demak, refleksiya faqat shaxsiy introspeksiya bilan chegaralanmay, balki insonning ijtimoiy idrokini ham shakllantiradi. O'qituvchi uchun bu yondashuv o'quvchilarni chuqurroq tushunish, ularning hissiy holati va fikrlash tarziga e'tibor qaratish imkonini beradi. Refleksiv pedagogika tamoyillari o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro ishonch va muloqot madaniyatini shakllantiradi. Bu yondashuv shaxsni o'z xatti-harakatlarini tahlil qilishga, o'z xatolaridan xulosa chiqarishga, o'z faoliyatini doimiy takomillashtirishga undaydi. Refleksiya orqali shaxs o'z ichki dunyosini anglaydi, boshqalar bilan munosabatini muvozanatlashtiradi va o'zini ijtimoiy jihatdan samarali namoyon etishni o'rganadi [3]. Refleksiv innovatsion amaliyot o'qituvchi ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilib, bunda pedagogik fanda faqatgina yangilik yaratish qobiliyatigina emas, balki o'z-o'ziga, o'z mehnatiga, bolalarga, har qanday muammoli vaziyatni hal etishga va umuman hayotga o'ziga xos ijodiy munosabatda bo'lish tushuniladi [4].

Refleksiv innovatsion amaliyot ilgarigi tajribani dolzarblashtirish uni qayta anglash bo'lajak ta'lim muassasasining yangi muammo va munosabatlarini aniqlash uchun imkon beradi. Demak, pedagog-o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni // <https://lex.uz/ru/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
3. Qarshiyeva Z.Sh. Bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish. Samarqand davlat chet tillar instituti – 2021. - 75 b.
4. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 90 bet.